



# SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



## SURXONDARYO VILOYATIDA BAJARILGAN QURILISH ISHLARI ASOSIY KO'RSATKICHLARI

2023- YIL YANVAR-SENTABR

# SURXONDARYO VILOYATIDA FAOLIYAT KO'RSATAYOTGAN QURILISH KORXONALARI

2023- yilning 1- oktabr holatiga Surxondaryo viloyatida qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni 2 421 tani tashkil etdi.

Qurilish korxonalarining katta qismi, ya'ni 606 tasi yoki viloyatdagi jami korxonalarining 25,0 % i Termiz shahrida joylashgan.

## 2023- yil 1- oktabr holatiga qurilish korxonalarini soni, birlikda



Termiz sh.	606
Jarqo'rg'on t.	227
Termiz t.	196
Denov t.	171
Sariosiyo t.	167
Boysun t.	148
Qumqo'rg'on t.	140
Sho'rchi t.	129
Angor t.	117
Qiziriq t.	115
Sherobod t.	95
Muzrabot t.	95
Oltinsoy t.	80
Bandixon t.	68
Uzun t.	67

1 358

552

511

Bino va inshootlar qurilishi


Fuqarolik obyektlarini qurish

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Shuningdek, Jarqo'rg'on tumanida 227 ta (viloyat bo'yicha ularning jami soniga nisbatan 9,4 %), Termiz tumanida – 200 ta (8,1 %) qurilish korxonalarini mavjud bo'lib, qolgan hududlarga nisbatan kattaroq ko'rsatkichga ega.

## Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi (yanvar-sentabr uchun)

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida, Surxondaryo viloyatida jami 5 232,6 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 105,3 % ni tashkil etdi.



**2019**

2 942,6  
mlrd. soʻm

123,0 %



**2020**

3 389,7  
mlrd. soʻm

104,2 %

**2021**

4 053,5  
mlrd. soʻm

109,1 %

**2022**

4 806,1  
mlrd. soʻm

105,3 %

**2023**


5 232,6  
mlrd. soʻm

105,3 %

Oldingi yilning mos davriga nisbatan



*Maʼlumot uchun: qurilish faoliyati bu – oʻz kuchi bilan amalga oshirilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hajmlari va boshqalar natijasidir.*



## 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida Surxondaryo viloyatida qurilish ishlari

**Hududlarning hajmi va 2022- yilning mos davriga nisbati,**  
mlrd. so‘m va foizda


	Qurilish ishlari, mlrd. so‘m	O‘shish sur‘ati, % da	Umumiy hajmga nisbatan, % da
Surxondaryo viloyati	5 232,6	105,3	100,0
Termiz sh.	1 581,4	119,0	30,2
tumanlar:			
Oltinsoy	115,4	111,2	2,2
Angor	233,5	105,6	4,5
Bandixon	105,5	115,0	2,0
Boysun	348,4	104,7	6,7
Muzrabot	201,5	98,5	3,9
Denov	549,4	105,8	10,5
Jarqo‘rg‘on	360,2	102,6	6,9
Qumqo‘rg‘on	183,0	96,2	3,5
Qiziriq	183,7	100,9	3,5
Sariosiyo	560,9	87,6	10,7
Termiz	294,3	105,4	5,6
Uzun	114,7	77,8	2,2
Sherobod	257,6	106,0	4,9
Sho‘rchi	143,1	106,1	2,7

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida hududlar kesimida xususan, Termiz shahri (1 581,4 mlrd. so‘m), Sariosiyo tumani (560,9 mlrd. so‘m) va Denov tumanida (549,4 mlrd. so‘m) qurilish ishlarining yuqori hajmi qayd etildi.

## 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida Surxondaryo viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 75,6 % ulushni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 107,4 % ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 18,7 % ulushni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 91,1 % ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 5,7 % ulushni va 2022- yilning mos davriga nisbatan 98,1 % ni tashkil etdi.



**Qurilish ishlari hajmiga** yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan qurilish pudrat shartnomalari asosida va xo'jalik usulida bajarilgan ishlar, shuningdek, sotish uchun mo'ljallangan obyektlar kiritiladi.

## 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi


Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 75,7 % i yoki 3 961,7 mlrd. soʻm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

**452,1** mlrd. soʻm Yirik qurilish tashkilotlari boʻyicha yangi qurilish hisobidan 452,1 mlrd. soʻmlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 11,4 % ni tashkil etdi.

**2 334,8** mlrd. soʻm Kichik korxonalar va mikrofirmalar boʻyicha yangi qurilish hisobidan 2 334,8 mlrd. soʻm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 58,9 % ni tashkil etdi.

**1 174,8** mlrd. soʻm Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi 1 174,8 mlrd. soʻm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 29,7 % ni tashkil etdi.


### Yillar kesimida yangi qurilishning hajmi va ulushi



# 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida bino va inshootlar qurilishi asosiy ko'rsatkichlari

*Korxonalar turlari bo'yicha*

**Jami bino va inshootlarni qurish – 3 954,2 mlrd. so'm**



Amaldagi statistik kuzatuv shakllarida 2015- yilning 1- yanvaridan boshlab, "O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (mahsulot, ish, xizmat) statistik tasniflagichi (MST)"ga muvofiq **"Qurilish" faoliyati bo'yicha "faoliyat turi bo'yicha o'z kuchi bilan amalga oshirilgan ishlar hajmi"** ko'rsatkichi qo'llaniladi..

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 4,5 % ni tashkil etib, 2022- yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 3,7 % punktga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2022- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 3,4 % punktga kamayib, 62,2 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2022- yilning mos davriga nisbatan 0,3 % punktga kamayib, 33,3 % ni tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida fuqarolik  
obyektlarini qurish asosiy ko'rsatkichlari  
*Korxonalar turlari bo'yicha*

Fuqarolik obyektlarini qurish, *978,8 mlrd. so'm*



**Fuqarolik obyektlari qurilishiga** avtomobil yo'llari, ko'chalar, ko'priklar va tunnellar, temir yo'llar, aerodromlar, gavanlar va boshqa suv loyihalari, sug'orish tizimlari, sanoat inshootlari, truboprovodlar va elektr uzatish liniyalari, ochiq sport komplekslari kabi og'ir konstruksiyalarni qurish kiradi.


Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 30,1 % ni tashkil etdi va 2022- yilning mos davriga nisbatan 3,3 % punktga kamaydi. Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 69,9 % (3,3 % punktga ko'payish).



# 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari asosiy ko'rsatkichlari

## Korxonalar turlari bo'yicha

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari, 299,6 mlrd. so'm




Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari sayqallash, suvoqchilik, bo'yoqchilik ishlari, pollar va devorlarni plitka bilan qoplash yoki parket, kovrolan, gulqog'ozlar bilan qoplash, shuningdek, pollarni siklyovkalash, duradgorlik ishlari, ovoz izolyatsiyalash ishlari, tashqi hududlarni tozalash kabi bezatishga aloqador ishlarni o'z ichiga oladi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2022- yilning mos davriga nisbatan 3,5 % punktga kamaydi va 4,4 % ni tashkil etdi.

Qolgan 95,6 % i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 3,5 % punktga ko'paydi.


# 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida korxonalar turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

## Qurilish ishlari hajmining tarkibi, *mlrd. so'mda*




Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.


### Jami hajmga nisbatan ulushi



Yirik qurilish tashkilotlari



Kichik korxonalar va mikrofirmalar



Norasmiy sektor

2022- yilning mos davri bilan solishtirganda –  
**119,4 %**

2022- yilning mos davri bilan solishtirganda –  
**105,1 %**

2022- yilning mos davri bilan solishtirganda –  
**101,3 %**

# Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

## Yirik qurilish tashkilotlari, jamiga nisbatan ulushi




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 484,3 mlrd. so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2022- yilning mos davriga nisbatan 119,4 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 1,0 % ga ko'payib, 9,3 % ni tashkil etdi.

**Xo'jalik usulida** bajarilgan ishlar hajmi qurilish egasi tomonidan hisobot davrida qurilish ishlariga sarflangan xarajatlaridan kelib chiqib aniqlanadi.



# Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida bajarilgan qurilish ishlari

## Hududlarning hajmi, mln. soʻmda



## Jamiga nisbatan ulushi



Sariosiyo tumani



Termiz shahri




Jarqoʻrgʻon tumani

Maʼlumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng koʻp ulushi Termiz shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 14,0 % i), Sariosiyo tumani (39,7 % ) va Jarqoʻrgʻon tumanida (6,4 %) qayd etildi.

# Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

## Kichik korxonalar va mikrofirmalar, jamiga nisbatan ulushi




2023- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 65,6 % i to'g'ri kelib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 1,2 % punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2022- yilning mos davriga nisbatan 105,1 % ni tashkil etgan holda 3 432,3 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.




# 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan ishlar

## Hududlarning hajmi, mlrd. so'm



Termiz shahri



Denov tumani




Boysun tumani

*Ma'lumot uchun:* ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Termiz shahrida (1 281,4 mlrd. so'm), Denov tumanida (357,5 mlrd. so'm) va Boysun tumanida (246,2 mlrd. so'm) qayd etildi.

# 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor

## Norasmiy sektor, jamiga nisbatan ulushi




Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 25,1 % ni yoki 1 316,0 mlrd. soʻmni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 101,3 % ni tashkil etdi. Shundan 1 056,8 mlrd. soʻmi yakka tartibdagi uy-joy qurilishiga toʻgʻri kelib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 100,7 % ni, jismoniy shaxslar tomonidan noturar-joylar qurilishi 117,9 mlrd. soʻmni va 99,6 % ni, yakka tartibdagi turar-joylarni taʼmirlash ishlari 141,3 mlrd. soʻmni va 107,0 % ni tashkil etdi.



# 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida qurilish ishlarining umumiy hajmidagi norasmiy sektor

## Hududlarning hajmi, mlrd. soʻmda

### Surxondaryo viloyati



**191,9** mlrd. soʻm  
Denov tumani



**137,0** mlrd. soʻm  
Sariosiyo tumani




**102,2** mlrd. soʻm  
Boysun tumani

*Maʼlumot uchun:* koʻrib chiqilayotgan davrda norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Denov tumanida (191,9 mlrd. soʻm), Sariosiyo tumanida (137,0 mlrd. soʻm) va Boysun tumanida (102,2 mlrd. soʻm) qayd etildi.




# Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

Yanvar-sentabr oylaridagi hajm, mlrd. so'mda



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 26,2 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa 5 206,4 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda 0,5 % va 99,5 % ni tashkil etdi.



**Ma'lumot uchun:** nodavlat mulk obyektlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmida eng yuqori ulush Oltinsoy tumanida (ushbu viloyatdagi qurilish ishlari umumiy hajmining 100,0 % i), Angor tumanida (qurilish ishlari umumiy hajmining 100,0 % i) va Boysun tumanida (ushbu viloyatdagi umumiy qurilish ishlarining 100,0 % i) qayd etildi.

## **Qurilish ishlari**

### **USLUBIY TUSHUNTIRISHLAR**

**Qurilish ishlari** – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari maydoni rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

**Kapital qurilishga pudrat shartnomasi** – bunda pudratchi shartnomada belgilangan ishlarni amalga oshirishi yoki xavf-xatarni o'ziga olgan holda obyektни qurish va shartnomada belgilangan muddatda topshirish majburiyatini oladi, buyurtmachi esa, pudratchiga qurilish maydonini ko'rsatadi yoki ish jabhasini ta'minlaydi, ularni qabul qiladi va to'lovlarni amalga oshiradi.

**Qurilish tashkilotlariga** – barcha umumiy qurilish va ixtisoslashtirilgan tashkilotlar, mexanizatsiya boshqarmalari, ishga tushirish va sozlash tashkilotlari, neft va gaz uchun qidiruv quduqlari qurilishi bilan bog'liq chuqur qidiruv burg'ulash ishlari va boshqa ishlarni amalga oshiruvchi, shuningdek, kapital qo'yilmalar hisobiga qurilayotgan neft va gaz uchun ekspluatatsiya quduqlari qurilishi bilan shug'ullanuvchi burg'ulash tashkilotlari kiritiladi.

**Investitsiya va qurilish statistikasi bo'limi**  
**Tel. 76 225-65-59 (7520)**